

Do'stingni Alloh roziligi uchun ziyorat qil!



15:03 / 05.11.2018 4585

Ey, farzand!

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam marhamat etadilar:

«Kim bir mo'min birodarini Alloh roziligi uchun ziyorat etib, qo'l ushlab uch bora silkitib ko'rishsa, kuzgi daraxt barglari to'kilgandek, har ikkovining gunohlari to'kiladi».

Yana bir hadisi shariflarida Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shunday marhamat etadilar:

«Zarur holda mo'min birodarining ziyoratidan uzoq bo'lgan va jamoatni tark etgan Allohning rahmatidan ham uzoq qoladi».

«Kerak vaqtda mo'min birodarining ziyoratida bo'lmagan kishi meni ranjitgan bo'ladi».

Hazrati Umar roziyallohu anhu marhamat etadilar:

Rasulullohdan sollallohu alayhi vasallam ziyoratga munosib vaqtlarni so'radim. Menga shunday dedilar:

«Ey, Umar! Ertalab va asr vaqtlarida ziyoratda bo'lmoqni menga Makkayi Mukarramadagi paytimda Jabroil alayhissalom o'rgatdilar. Bir kun birodarini Alloh roziligi uchun ziyorat etgan kishi Hizr alayhissalomni ziyorat etgan kabidir».

Mo'minlar bir-birini ziyorat etishlarining savob va fazilatlarini sanab ado qilib bo'lmaydi.

Har xil bahonalar bilan ziyoratdan qochmaslik kerak. Chunki uch toifa inson Alloh taolo jamolini ko'rmoqdan mahrum qoladi:

1. Tanbal kishilar.
2. Kibrililar va xudbinlar.
3. Behuda, befoyda narsalar bilan o'ralashuvchilar, sir saqlashni bilmaydigan ezma, vaysaqilar.

Ey, farzand!

Aslo musofaha (qo'l ushlab ko'rishish)ni tark etma.

Janob Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bir hadisi shariflarida shunday marhamat etadilar:

«Uchrashgan mo'min birodari bilan musofaha etmoq (qo'l ushlab ko'rishmoq)dan qochgan (o'zini tortgan) kishi bizdan emas».

Musofaha paytida marhumlarni, mo'min-musulmonlarni duo qilish kerak. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga alohida salovat aytish lozim.

“Ey, farzand!” kitobidan